

## JAMOAVIY IJODNING AHAMIYATI IJODIY GURUHLAR MISOLIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14252355>

**Avazbek Nasirdinov**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi*

### **Annotasiya**

Ushbu maqolada badiiy ijod jarayonidagi faoilayt yuritib kelayotgan ijodiy guruhlar va ularning ijod yo'lidagi umumiy maqsadlari haqida ma'lumotlar berishga harakat qildindi. Ijodiy guruhi nima ekanligini, u qanday xususiyatlar va afzalliliklarga ega ekanligi, shuningdek, mazkur maqolada O'zbekiston rassommlaridan tashkil topgan taniqli ijodiy guruhlar haqida so'z boradi.

### **Kalit so'zlar**

tasviriy san'at, badiiy ijod, ijodiy guruh, Sarchashma ijodiy guruhi, Art-Trio ijodiy guruhi.

### **Аннотация**

В данной статье была сделана попытка дать информацию о действующих творческих коллективах в процессе художественного творчества и их общих целях на творческом пути. О том, что такое творческая группа, какими особенностями и преимуществами она обладает, а также об известных творческих коллективах, состоящих из художников Узбекистана, будет рассказано в данной статье.

### **Ключевые слова**

изобразительное искусство, художественное творчество, творческая группа, творческая группа Сарчащма, творческая группа Арт-трио.

### **Annotation**

In this article, an attempt was made to provide information about the active creative teams in the process of artistic creation and their common goals on the creative path. What a creative group is, what features and advantages it has, as well as well-known creative teams consisting of artists from Uzbekistan, will be described in this article.

### **Keywords**

fine art, artistic creativity, creative group, Sarchashma creative group, Art trio creative group.

Bugungi kunda turli xil jamoalar mavjud bo'lib, ular ko'plab sohalar ya'ni musiqa, san'at, sport va boshqa yo'nalaishlarda faoliyat olib borish maqsadida birlashadilar. Ijodiy guruhlarning maqsadlari avvalo birgalikda ijod qilish, ijodiy safarlar, guruhli ko'rgazmalarni tashkil etish yoki hatto katta oila sifatida birga ishslashgacha bo'lgan har qanday faoliyat ya'ni bir maqsad sari harakat bo'lishi mumkin. Kengroq ma'noda aytadigan bo'lsak adabiy guruhlar va musiqachilar, rassomlar umumiy aytganda ijodkorlarning birlashmalarini ijodiy guruhlar deb aytsak to'g'ri bo'ladi. Izlanishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, ijodiy guruhlar san'at tarixidagi turli davrlarga katta va muhim ta'sir ko'rsatib kelgan va bu davom etib kelmoqda ham. San'at olamidagi taniqli ijodiy guruhlari bilan tanishib chiqadigan bo'lak, san'at tarixida san'at rivojiga katta hissa qo'shgan ko'plab xorojiy taniqli ijodiy guruhlari mavjud. Ulardan ba'zilari:

"Bauhaus" (1919-1933) - XX asr dizayni, arxitekturasi va san'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan nemis san'at maktabi.

"Fluxus" (1960-yillar) - san'at va madaniyatning an'anaviy chegaralarini buzishga intilgan xalqaro rassomlar uyushmasi.

"Surrealizm" (1920-1930-yillar) - san'at orqali ongsiz fikrlar va fantaziyalarni ifodalashga intilgan badiiy harakat.

"Moviyl chavandoz" (1911-1914) - ekspressionizm va mavhum san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan nemis badiiy birlashmasi.

Tasviriy san'at sohasidagi davom etayotgan ijodiy-tashkiliy jarayonlar insonning ichki dunyoqarashini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Badiiy-ijodiy madaniyatning roli o'z oldiga tasviriy san'at sohasidagi ijodiy izlanishlar va bunday tajribadan zamonaviy san'at sohasida foydalanish istiqbollarini anglash ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ham sezilarli o'zgarish uchun sharoit yaratish vazifasini qo'yadi. Tasviriy san'atda ijodiy izlanish olib borish, iste'dodni rivojlantirish va shakllantirish masalasiga noananaviy yondashish barchada ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni uyg'otishi mumkin. Barchamizga ma'lumki ijodkorlikka bo'lgan bu moyillik insoniyat tabiatiga xosdir. Shu sababli, bugungi kunda yoshlar o'rtasida ijodiy salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha yurtimizda maqsadli va tizimli pedagogik jarayonlarni tashkil etishdagi ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ijodiy guruhlarlarning maqsadi boshqa rassomlar bilan aloqalarni o'rnatish, avangardga yoki san'atning yangi yo'nalishlariga keng ma'noda e'tiborni jalb qilish, an'anaviy akademik yondashuvlardan ba'zan chetga chiqish, yangi ufqlarni ochish va ularga rioya qilish, masalan, guruhli ko'rgazmalar tashkil etish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. Tasviriy va amaliy san'atning barcha sohalari o'rtasidagi chegaralardan

chiqilgan holda ijod qilish ham ularning maqadlaridan biri hisoblanadi. Asosan ijodiy guruhlari odatda ikki yoki undan ortiq rassomlarning kichik guruhlari bo'lib, ular birgalikda yoki alohida-alohida galereyalarda, ko'rgazmalarda yoki jamoat joylarida birgalikda namoyish etish uchun asarlar yaratadilar. Rassomlar ijodiy jamoasi ko'rgazmalar, ustaxonalar yoki studiyalar uchun jamoaviy tarzda birgalikda ijod qiladilar. Yangi va eksperimental ijod usullaridan foydalanishdan chekinmaydilar. Asosan dasturga yo'naltirilgan badiiy jamoalardan farqli o'laroq, ijodiy jamoalar odatda umumiy ish joylari yoki rassomlarning ustaxonalaridan foydalanish xarajatlarini bo'lismashdilar. Biroq, uzoq yillik do'stlik, hamkorlikdagi tematik ko'rgazmalar va boshqa ishtirokchilarning asarlari bilan muqarrar tanishish orqali qulaylik uchun oddiy hamjamiyatdan tashqariga chiqadigan aralash shakllar paydo bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda bir nechta ijodiy guruhlar faoliyat olib borib ijod qilib kelmoqdalar. Bular "Sarchashma" ijodiy guruhi, "Art-Trio", "Art-Turon" va boshqa shu kabi ijodiy guruhlar. Sarchashma ijodiy guruhi 2004 yilda tashkil etilagn bo'lib, guruhning nomi Qashqadaryo viloyatining tog'li xududida joylashgan Sarchashma qishlog'i nomidan kelib chiqib tanlangan. Guruh tarkibida Akmal Nyp, Fayzulla Ahmadaliyev, Hikmat Jalilov, Nuriddin Kalanov, Nabi Mamadiyev, Hakim Mirzaxmedov, Anvar Mirsoatov, Abdusamat Saidberdiyev, Muhammadiyor Toshmurodov, Dilyer Imomov, Lyubov Semizorova, Obid Bakirov, Sobir Rahmetov, Maxsud Qosimov, Alijon Rahimov, Nodir Abdullayev singari turli rassomlar va ularning avlodlari turli yo'nalishlarda ijod qilib kelmoqda va bir qancha ko'rgazmalar muallifidirlar.



1-rasm. "Sarchashma" ijodiy guruhi

"Art-Trio" ijodiy guruhi ham hozirgi kunda o'zining ko'plab ijodiy asarlari bilan o'z muhlislariga ega bo'ldi. Guruh tarkibida mahoratlari rasomlar Murod Azlarxo'jayev, Husan Qosimov, Baxtiyor Alimxonovlar faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.



## 2-rasm. "Art-Trio" ijodiy guruhi

Ularning har biri o'z tajribasi va bilimlariga ega rassomlardir. Ulardan biri kompozitsiyada kuchli bo'sa, biri rangtavirda, kimdir esa chizmatasvir yoki rangtasvirda o'z ustunliga ega. Ular dastgoh va monumental uslubidagi kartinalarning deyarli barcha janrlarida ishlashadi. "Art Trio" guruhi tomonidan yozilgan asarlarning asosiy xaridorlari xorij yoki xususiy mijozlarni tashkil etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ильина Т.В. История искусства-М.,2003- 407с.
2. Федоров-Давыдов А.А. И.И. Левитан. Жизнь и творчество. М., 1966.
- 3.Лапшина Н. «Мир искусства». Очерки истории и творческой практики. М., 1977.- 186с.
4. [Коллективное творчество](#) – арт-азбука. под ред. [Макса Фрая](#)
5. <https://artvernissage.art/uz/artists/10/>
6. <https://art-blog.uz/archives/13367>